



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 222-230 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

“TAX-FREE” SAVDO HAJMIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI (GLOBAL BLUE VA PLANET PAYMENT MISOLIDA)



Otaxonova Lobar

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro «Tax-free» bozori faoliyati Global Blue va Planet Payment kompaniyalari misolida iqtisodiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida 2015–2024-yillar oralig’idagi panel ma’lumotlar asosida OLS regressiya modeli qo’llanilib, «Tax-free» savdo hajmiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlandi. Tahlil natijalariga ko’ra, refund operatsiyalari soni (TFR) savdo hajmiga ijobiy ta’sir ko’rsatsa, minimal xarid chegarasi (MIN) va valyuta kursi elastikligi (ER) salbiy ta’sir ko’rsatishi aniqlandi. Shuningdek, optimal QQS stavkasi taxminan 19% atrofida shakllanishi mumkinligi empirik jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari «Tax-free» tizimini rivojlantirish, refund xizmatlarini raqamlashtirish hamda turistlar xarid faolligini oshirish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so’zlar: «Tax-free», refund tizimi, QQS, turist xarajatlari, OLS regressiya modeli, valyuta kursi elastikligi, retail savdo, Global Blue, Planet Payment, xalqaro turizm.

Abstract: This article analyzes the international «Tax-free» market using the examples of Global Blue and Planet Payment. Based on panel data covering the period 2015–2024, an OLS regression model was applied to identify the main factors affecting «Tax-free» sales volume. The findings reveal that the number of refund transactions (TFR) has a positive impact on sales volume, while the minimum purchase threshold (MIN) and exchange rate elasticity (ER) negatively affect «Tax-free» sales. In addition, the study empirically determines that the optimal VAT rate stimulating «Tax-free» sales is around 19%. The results contribute to the development of «Tax-free» systems, digitalization of refund services, and enhancement of tourist shopping activity.

Keywords: «Tax-free», refund system, VAT, tourist expenditure, OLS regression model, exchange rate elasticity, retail trade, Global Blue, Planet Payment, international tourism.

Аннотация: В данной статье проведен экономический анализ международного рынка «Tax-free» на примере компаний Global Blue и Planet Payment. На основе панельных данных за 2015–2024 годы была применена модель OLS-регрессии для выявления основных факторов, влияющих на объем «Tax-free» продаж. Результаты исследования показали, что количество операций возврата НДС (TFR) оказывает положительное влияние на объем продаж, тогда как минимальный порог покупки (MIN) и эластичность валютного курса (ER) влияют отрицательно. Кроме того, эмпирически обосновано, что оптимальная ставка НДС, стимулирующая «Tax-free» продажи, составляет около 19%. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования системы «Tax-free», цифровизации refund-сервисов и повышения потребительской активности туристов.

Ключевые слова: «Tax-free», система возврата НДС, НДС, расходы туристов, OLS-регрессия, эластичность валютного курса, розничная торговля, Global Blue, Planet Payment, международный туризм.

Kirish

Bugungi Globallashuv sharoitida xalqaro turizm butun dunyo iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, xarid turizmi ayrim holatlarda sayohatning asosiy motivatsion omili sifatida namoyon bo'lib, turistlar xarajatlari tarkibida muhim ulishni egallaydi [1]. Shu nuqtai nazardan, «Tax-free» xarid tizimi yani xorijiy sayyohlarga Qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) qaytarish mexanizmi, xalqaro savdoni rag'batlantiruvchi samarali instrument sifatida qaraladi.

Tadqiqot va izlanishlarimiz natijasida mazkur bozorda ikki yetakchi operatorlar yani Global Blue va Planet Payment alohida muhim o'rin tutadi. Global Blue Shveysariyaning Nyon shahrida joylashgan bo'lib, «Tax-free» xarid, ya'ni QQS/GST qaytarish mahsuloti bo'yicha sanoat yetakchisi hisoblanadi. 40 yillik tajribaga ega Global Blue bugungi kunda 53 mamlakatda minglab chakana sotuvchilar va mehmonxonalarni 80 million yaqin iste'molchi bilan bog'laydi. Kompaniya 2023/24 moliyaviy yilida 28 milliard yevrolik savdo hajmiga va 422 million yevro daromadga erishgan [2]. Planet Payment esa 30 yildan ortiq davr mobaynida 29 mamlakatdagi 150 000 dan ortiq chakana do'konda «Tax-free» qaytarimlarni amalga oshirib kelmoqda[3; 4].

Ushbu ikki kompaniya faoliyati qiyosiy ilmiy tahlil nuqtai nazaridan kam o'rganilgan. Turist soliq qaytarish tizimlari adabiyotda keng tadqiq etilmagan bo'lib, bu bo'shliqni to'ldirish zarur. Mavjud tadqiqotlar asosan soliq siyosati yoki turist xulq-atvori masalalarini alohida ko'rib chiqqan, ammo «Tax-free» savdo hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ikkala yirik operator misolida bir vaqtda tahlil qiluvchi ilmiy ish deyarli mavjud emas.

Adabiyotlar sharhi

Turizm salohiyati va xarid xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy turizm iqtisodiyotining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Bekjanov va Matyusupov (2021) tomonidan O'zbekiston sharoitida olib borilgan empirik tadqiqot natijalari xorijiy sayyohlarning asosiy maqsadlari sayohat, dam olish hamda ziyorat bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqotda ushbu turist guruhlarining xarid xulq-atvorida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlangan bo'lib, ayniqsa uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan turistlar mahalliy mahsulotlar va suvenirarga nisbatan yuqori xarid faolligini namoyon etgan. Shu bilan birga, turizm xizmati provayderlari mahsulot sifati va xilma-xilligini 4,0 ball, narx-sifat nisbatini esa 3,9 ball bilan baholaganlari turistlarning xarid qarorlarida narx omili muhim determinant ekanligini tasdiqlaydi[5].

Shu nuqtai nazardan, Larry Dwyer va Chulwon Kim (2003) tomonidan ishlab chiqilgan destination raqobatbardoshligi modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur modelda narx raqobatbardoshligi turistik destinatsiyaning asosiy determinantlaridan biri sifatida ko'rsatilib, mamlakatdagi soliq tizimi hamda xorijiy turistlarga taqdim etiladigan QQS imtiyozlari destination jozibadorligiga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan. Shuning uchun ham optimal QQS stavkasi va minimal xarid chegaralarini to'g'ri belgilash turizm salohiyatini oshirishning muhim iqtisodiy vositasiga aylanishi mumkin. Amaliyotda esa

ushbu mexanizmni samarali tashkil etishda Global Blue va Planet Payment kabi xalqaro operatorlar muhim rol o'ynaydi.

Turistlarning xarid xulq-atvoriga oid empirik tadqiqotlar ham "Tax-free" tizimining samaradorligini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarda turistlarning xarid niyatiga hamrohlarining ta'siri, impulsivlik darajasi hamda vaziyatga bog'liq omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Ayniqsa, savdo jarayonida sotuvchilar bilan muloqot, gidlarning tavsiyalari, boshqa turistlarning xatti-harakati va vaqt cheklovi kabi omillar joyida (on-site) qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi [6]. Shu bilan birga, Lai va Hung (2021; 2022) tomonidan olib borilgan izlanishlarda hashamat segmentidagi xaridlar misolida ijtimoiy ta'sir va kommunikatsiyaning ahamiyati yanada chuqurroq yoritilgan. Ularning natijalariga ko'ra, turistlar uchun mahsulotning nafaqat funksional (utilitar), balki hissiy (hedonik) qiymati ham muhim hisoblanadi va aynan ushbu omillar umumiy qoniqish darajasi hamda ijobiy tavsiyalar berish ehtimolini oshiradi [7].

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan olib qaralganda ham "Tax-free" tizimining turizm iqtisodiyotiga sezilarli ta'siri mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, Centre for Economics and Business Research (2020) tomonidan Kanada misolida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, "Tax-free" xarid tizimi ikki asosiy iqtisodiy effektni yuzaga keltiradi: birinchisi — xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining ortishi, ikkinchisi esa — turistlarning jon boshiga to'g'ri keladigan xarajatlarning ko'payishi. Tadqiqotda turist iste'mol savati narxining 2 foizga kamayishi jami xarajatlarning 3,2 foizga o'sishiga olib kelishi aniqlangan [8]. Bu esa "Tax-free" tizimining turizm iqtisodiyotida multiplikativ samaraga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Tax-free" xarid tizimi bo'yicha tadqiqotlar hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ayrim muhim yo'nalishlarda sezilarli ilmiy bo'shliqlar mavjud. Xususan, Wang va Stewart (2022) ta'kidlaganidek, turistlarga QQSni qaytarish mexanizmlariga oid mavjud tadqiqotlarning aksariyati normativ-huquqiy va siyosiy yondashuvlar bilan cheklanib qolgan. Natijada, bozor konsentratsiyasi, raqobat muhiti hamda raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini empirik baholovchi tadqiqotlar yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu sababli, mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot miqdoriy yondashuvga asoslangan bo'lib, tahlil jarayoni ikki yirik «Tax-free» operatori — Global Blue va Planet Payment kompaniyalari kesimida ochiq manbalardan olingan panel ma'lumotlar asosida olib boriladi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Global Blue hamda Planet Payment kompaniyalari tanlab olingan. Empirik tahlil 2015–2024-yillar oralig'ini qamrab oluvchi 10 yillik panel ma'lumotlarga asoslanadi. 10 yillik davr kesimida 50 ta panel kuzatuvni tashkil etadi. Tahlil davomida quyidagi statistik ma'lumotlardan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

Global Blue korxonasi misolida «Tax-free» savdo hajmi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Ko'rsatkichlar	Mean	Median	S.D.	Min	Max
«Tax-free» savdo hajmi (€ million)	2839.2	2680	1747.5	240	6740
«Tax-free» qaytarimlar soni (ming dona)	6048.6	5680	3709.5	510	14280
Valyuta kursi (indeks)	106.75	107	2.4025	103.1	110.2
QQS stavkasi (foizda)	0.2034	0.2	0.011886	0.16	0.22
Minimal xarid chegarasi (€)	109	90	48.382	50	175

Manba: Muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Global Blue kompaniyasida «Tax-free» savdo hajmining o'rtacha qiymati 2839.2 mln. €ni tashkil etib, standart og'ish 1747.5 ga teng. Bu ko'rsatkich yillar kesimida sezilarli o'zgaruvchanlikka ega ekanligini bildiradi. Valyuta kursi indeksining past standart og'ishi (2.4025) esa ushbu ko'rsatkichning nisbatan barqarorligini ko'rsatadi.

Huddi shu omillar kesimida Planet Payment korxonasi uchun ham statistik ma'lumotlar to'plandi:

2-jadval

Planet Payment korxonasi misolida «Tax-free» savdo hajmi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Ko'rsatkichlar	Mean	Median	S.D.	Min	Max
«Tax-free» savdo hajmi (€ million)	814	660	648.79	108	28.2
«Tax-free» qaytarimlar soni (ming dona)	1899	1540	1516.8	274	6580
QQS stavkasi (foizda)	0.174	0.2	0.064	0.5	0.23
Minimal xarid chegarasi (€)	86.8	90	77.76	27	250

Manba: Muallif ishlanmasi

Planet Payment kompaniyasida «Tax-free» savdo hajmining o'rtacha qiymati 814 mln. €ni tashkil etib, Global Blue ga nisbatan taxminan 3.5 barobar kichik. Valyuta kursi indeksining yuqori standart og'ishi (58.11) ushbu kompaniya xizmat ko'rsatuvchi bozorlardagi valyuta kurslarining beqarorligidan dalolat beradi.

Mazkur jadvallarda keltirilgan ko'rsatkichlar asosida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlar OLS modeli yordamida aniqlanadi. Model parametrlarini baholash uchun Gretl dasturidan foydalanildi.

Natija va tahlillar

Global Blue korxonasining «Tax-free» savdo hajmi samaradorligi bo'yicha tuzilgan modellarning adekvatligini asoslash uchun bir qator mezonlar 3-jadvalda keltirib o'tilgan. 3-jadvalda Global Blue korxonasi uchun OLS regressiya modeli natijalari keltirilgan. Natijalarga ko'ra, **TFR** o'zgaruvchisi musbat va statistik ahamiyatli bo'lib ($p < 0.0001$), refund operatsiyalari sonining ortishi «Tax-free» savdo hajmini oshirishini ko'rsatadi.

ER ning manfiy koeffitsienti valyuta kursidagi o'zgarishlar savdo hajmiga salbiy ta'sir qilishini bildiradi. VAT ko'rsatkichining musbat qiymati QQS stavkasi oshishi «Tax-free» tizimining jozibadorligini kuchaytirishini anglatadi. MIN o'zgaruvchisining manfiy koeffitsienti esa minimal xarid summasi oshishi «Tax-free» savdo hajmini kamaytirishini ko'rsatadi.

Modelning $R^2 = 0.9996$ natijasi mustaqil o'zgaruvchilar «Tax-free» savdo hajmidagi o'zgarishlarning deyarli barchasini izohlashini bildiradi. F-statistika natijalari ham modelning umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

3-jadval

Global Blue korxonasi uchun OLS regressiya modeli natijalari (OLS, using observations 1-50, Dependent variable: TFSamln, HC1)

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
TFR	0.474366	0.00253352	187.2	<0.0001	***
ER	-4.85367	1.77651	-2.732	0.0089	***
VAT	2917.68	1085.45	2.688	0.0100	***
MIN	-0.969464	0.328377	-2.952	0.0050	***

Mean dependent var	2839.200	S.D. dependent var	1747.530
Sum squared resid	213258.5	S.E. of regression	68.08858
R-squared	0.999614	Adjusted R-squared	0.999589
F(4, 46)	130435.6	P-value(F)	1.32e-92
Log-likelihood	-279.9029	Akaike criterion	567.8057
Schwarz criterion	575.4538	Hannan-Quinn	570.7182

Manba: Muallif ishlanmasi

Global Blue korxonasi uchun 2025–2030-yillarga mo'ljallangan «Tax-free» savdo hajmi prognozlari 4-jadvalda keltirilgan. Natijalarga ko'ra, kompaniyada «Tax-free» savdo hajmi kelgusi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qoladi.

Prognozlarga asosan, 2026-yilda savdo hajmi 1474.613 mln. yevroni tashkil etsa, 2030-yilda 6763.21 mln. yevroga yetishi kutilmoqda. 95 foizlik ishonch oralig'ining nisbatan torligi prognoz natijalarining yuqori aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

4-jadval

Global Blue korxonasi uchun «Tax-free» savdo hajmi prognoz qiymatlari (For 95% confidence intervals, $t(0.025) = 2.013$)

Obs	TFSamln	prediction	std. error	95% interval
2026	1140.00	1139.17	69.3120	(999.656, 1278.69)
2027	1820.00	1811.10	68.7919	(1672.63, 1949.57)
2028	4180.00	4174.30	69.7420	(4033.91, 4314.68)
2029	5640.00	5646.88	71.2256	(5503.51, 5790.25)
2030	6740.00	6763.21	72.7540	(6616.76, 6909.65)

Manba: Muallif ishlanmasi

Planet Payment korxonasi uchun OLS regressiya modeli natijalari 5-jadvalda aks ettirilgan. Natijalarga ko'ra, **I_TFRming** o'zgaruvchisi musbat va statistik ahamiyatli bo'lib, refund operatsiyalari sonining ortishi «Tax-free» savdo hajmini oshirishini bildiradi.

Modelning $R^2 = 0.8345$ natijasi mustaqil o'zgaruvchilar «Tax-free» savdo hajmidagi o'zgarishlarning 83 foizdan ortig'ini tushuntirib bera olishini bildiradi. Bu esa modelning yetarli darajada ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

5-jadval

Planet Payment korxonasi uchun OLS regressiya modeli natijalari (OLS, using observations 1-50, Dependent variable: I_TFSamln, HC1)

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	-4231.90	629.478	-6.723	<0.0001	***
I_TFR	747.039	88.6227	8.429	<0.0001	***
I_MIN	-195.227	79.1314	-2.467	0.0180	**
I_VAT	243.368	90.8358	2.679	0.0107	**

Mean dependent var	901.8182	S.D. dependent var	640.2008
Sum squared resid	2915718	S.E. of regression	269.9869
R-squared	0.834558	Adjusted R-squared	0.822150
F(3, 40)	25.41966	P-value(F)	2.28e-09
Log-likelihood	-306.6649	Akaike criterion	621.3298
Schwarz criterion	628.4666	Hannan-Quinn	623.9765

Manba: Muallif ishlanmasi

Planet Payment korxonasi uchun 2025–2030-yillarga mo'ljallangan «Tax-free» savdo hajmi prognozlari keltirilgan. 6-jadvaldagi natijalarga ko'ra, kompaniyada savdo hajmi qisqa muddatda o'zgaruvchan bo'lsa-da, uzoq muddatda o'sish tendensiyasi kuzatiladi.

Prognozlarga asosan, 2026-yilda savdo hajmi 636.727 mln. yevroni tashkil etishi, 2030-yilda esa 1763.75 mln. yevroga yetishi kutilmoqda. Ishonch oralig'ining nisbatan kengligi prognozlarda ma'lum darajada noaniqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda kompaniyaning «Tax-free» bozoridagi o'sish salohiyati saqlanib qoladi.

6-jadval

Planet Payment korxonasi uchun «Tax-free» savdo hajmi prognoz qiymatlari (For 95% confidence intervals, $t(40, 0.025) = 2.021$)

Obs	TFSamln	prediction	std. error	95% interval
2026	180.000	-68.4711	315.044	(705.198, 568.256)
2027	480.000	664.247	287.652	(812.85, 1245.61)
2028	1240.00	1374.97	284.900	(899.163, 1950.77)
2029	1640.00	1584.71	288.825	(1000.97, 2168.44)
2030	2080.00	1763.75	293.806	(1169.95, 2357.56)

Manba: Muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalari Global Blue va Planet Payment korxonalarini misolida «Tax-free» savdo hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi. OLS regressiya modeli natijalari TFR, MIN, VAT va ER ko'rsatkichlarining savdo hajmiga turlicha ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

«Tax-free» qaytimlar soni (TFR)

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tax-free qaytimlar soni va tax-free savdo hajmi o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. OLS modeli natijalari TFR ko'rsatkichining statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi ($p < 0.0001$). Bu refund operatsiyalari sonining ortishi tax-free savdo hajmining ham oshishiga olib kelishini anglatadi.

Mazkur natija xalqaro turizm iqtisodiyoti bo'yicha shakllangan nazariy qarashlarga mos keladi. Xususan, turistlar xarajatlari va retail savdo hajmi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi Jahon Turizm Tashkiloti hisobotlarida ta'kidlangan [9]. Shuningdek, iste'molchilar xulq-atvori nazariyasiga ko'ra, refund tizimining qulayligi turistlarning xarid motivatsiyasini oshiradi va xarid faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [10].

Minimal xarid chegarasi (MIN)

Minimal xarid chegarasi va tax-free savdo hajmi o'rtasidagi bog'liqlik manfiy ekanligi aniqlandi. Model natijalariga ko'ra, minimal xarid summasining oshishi tax-free savdo hajmining kamayishiga olib keladi. Bu holat yuqori minimal limitlar turistlarning refund tizimidan foydalanish imkoniyatini cheklashi bilan izohlanadi.

Mazkur natija iste'molchilar xulq-atvori nazariyasidagi narx sezgirligi konsepsiyasiga mos keladi. Ya'ni, qo'shimcha xarid talablari iste'molchilar uchun moliyaviy cheklov vazifasini bajaradi va kichik hajmdagi xaridlarni kamaytiradi [11]. OECD tadqiqotlarida ham yuqori minimal xarid chegaralari tax-free tizimidan foydalanish darajasini pasaytirishi qayd etilgan [12].

Valyuta kursi elastikligi (ER)

Valyuta kursi va tax-free savdo hajmi o'rtasidagi bog'liqlik manfiy va noelastik ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, valyuta kursining 1% ga oshishi tax-free savdo hajmini o'rtacha 0.41% ga kamaytiradi. Elastiklikning $|E| < 1$ bo'lishi turistlar xaridlarining kurs o'zgarishlariga nisbatan cheklangan darajada sezgir ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur natija xalqaro iqtisodiyot nazariyasidagi valyuta kursi va iste'mol xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi qarashlarga mos keladi. Xususan, adabiyotlarda valyuta kursining oshishi xorijiy iste'molchilar uchun mahsulotlarning nisbatan qimmatlashishiga olib kelishi ta'kidlangan [13]. Shu bilan birga, World Bank hisobotlarida valyuta kursi beqarorligi turistlarning xarid qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [14].

Optimal QQS stavkasi (VAT)

Tadqiqotning muhim nazariy natijalaridan biri — optimal QQS stavkasining empirik aniqlanishidir. Olingan natijalarga ko'ra, tax-free savdo hajmini maksimal darajada rag'batlantiruvchi QQS darajasi taxminan 19% ni tashkil etadi. Ushbu bog'liqlik Laffer egri chizig'i konsepsiyasiga o'xshash tarzda talqin qilinib, "«Tax-free» Laffer egri chizig'i" sifatida izohlanadi.

Mazkur natija soliq siyosati nazariyasidagi optimal soliq yuki konsepsiyasiga mos keladi. Organisation for Economic Co-operation and Development hisobotlarida QQS

stavkasi iste'mol faolligiga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan [15]. Shuningdek, International Monetary Fund tadqiqotlarida soliq stavkasi va iste'mol xarajatlari o'rtasida nolinear bog'liqlik mavjudligi ta'kidlangan [16].

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda xalqaro turizm va retail savdo tizimining rivojlanishi «Tax-free» mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, turistlar xarajatlarini rag'batlantirish, xorijiy xaridorlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatlarning retail sektoridagi raqobatbardoshligini oshirishda «Tax-free» tizimi muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, refund xizmatlarini raqamlashtirish, mobil texnologiyalar va elektron platformalardan foydalanish «Tax-free» operatorlari faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari Global Blue va Planet Payment kompaniyalari misolida «Tax-free» savdo hajmiga refund operatsiyalari soni, minimal xarid chegarasi, QQS stavkasi hamda valyuta kursi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, refund jarayonining qulayligi va xizmatlarning raqamlashtirilishi turistlar xarid faolligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Shu asosda «Tax-free» tizimini yanada rivojlantirishda quyidagi takliflarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

– Refund jarayonlarini to'liq raqamlashtirish: bu orqali turistlarga QQS qaytarish xizmatlarini tezkor va qulay shaklda taqdim etish mumkin bo'ladi. Mobil ilovalar, QR-kod asosidagi chek tizimi va elektron refund platformalaridan foydalanish turistlarning vaqt xarajatlarini kamaytiradi hamda «Tax-free» tizimidan foydalanish darajasini oshiradi. Ayniqsa, aeroport va chegara punktlarida avtomatlashtirilgan refund tizimlarini joriy etish xizmat samaradorligini sezilarli oshiradi;

– Minimal xarid chegaralarini optimallashtirish: tadqiqot natijalari yuqori minimal xarid summalari «Tax-free» savdo hajmiga salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi. Shu sababli, turistlar uchun refund tizimidan foydalanishni yengillashtirish maqsadida minimal xarid limitlarini maqbul darajada belgilash muhim hisoblanadi. Bu ayniqsa o'rta daromadli turistlar segmentini jalb qilishda samarali bo'lishi mumkin;

– Optimal QQS siyosatini shakllantirish: tadqiqot natijalariga ko'ra, «Tax-free» savdo hajmini rag'batlantiruvchi optimal QQS stavkasi taxminan 19% atrofida shakllanishi mumkin. Shu sababli, QQS stavkalarini haddan tashqari oshirib yubormaslik va refund jozibadorligini saqlab qolish retail savdo hajmini oshirishga xizmat qiladi;

– Valyuta kursi barqarorligini ta'minlash: valyuta kursidagi keskin tebranishlar turistlarning xarid qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va turistlar uchun narx noaniqligini kamaytirish «Tax-free» bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

– Turistlar uchun axborot va kommunikatsiya xizmatlarini kuchaytirish: «Tax-free» tizimi haqida mobil ilovalar, ko'p tilli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali batafsil ma'lumot berish turistlarning refund xizmatlaridan foydalanish darajasini oshiradi. Ayniqsa, refund jarayonining sodda va tushunarli shaklda tushuntirilishi turistlar ishonchini mustahkamlaydi;

– Retail va turizm infratuzilmasi integratsiyasini kuchaytirish: savdo markazlari, mehmonxonalar, aeroportlar va transport tizimlari o'rtasida yagona refund ekotizimini

shakllantirish turistlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi hamda «Tax-free» xizmatlarining ommaviylikini oshiradi.

Umuman olganda, «Tax-free» tizimini samarali tashkil etish nafaqat retail savdo hajmini oshirish, balki xalqaro turizm raqobatbardoshligini kuchaytirish, xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha valyuta tushumlarini jalb qilishda ham muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Defrasne, C. (2020). Who benefits from «Tax-free» shopping? Customers behavioral responses to countries VAT refund strategies. *Unpublished master's thesis, Paris School of Economics*.
2. Wang, T., & Stewart, M. (2022). The law and policy of VAT tourist tax refund schemes: A comparative analysis. *World Tax J.*, 285.
3. Global Blue (2024). Monthly «Tax-free» Shopping Business Updates (Jan–Dec 2024). NYSE: GB.
4. Global Blue (2025). Monthly «Tax-free» Shopping Business Updates (Jan–Mar 2025). NYSE: GB.
5. Bekjanov, D., & Matyusupov, B. (2021). Influence of innovative processes in the competitiveness of tourist destination. In *Innovation and entrepreneurial opportunities in community tourism* (pp. 243-263). IGI Global Scientific Publishing.
6. Timothy, D. J. (2005). *Shopping Tourism, Retailing, and Leisure*. Channel View Publications.
7. Lai, I. K. W., & Hung, F. K. (2021). A study of tourists' luxury shopping behavior and satisfaction in duty-free consumption. *Journal of Vacation Marketing*, 27(4), 455–470.
8. Centre for Economics and Business Research. (2020). *The Economic Impact of Tax-Free Shopping in Canada*. London: CEBR Research Report.
9. Understanding the potential of tax-free shopping in destination economies
10. World Tourism Organization. *International Tourism Highlights*. — Madrid, 2023.
11. Consumer Behavior. Schiffman L., Wisenblit J. *Consumer Behavior*. — 12th ed. — Pearson Education, 2019.
12. Principles of Economics. Mankiw N.G. *Principles of Economics*. — 9th ed. — Boston: Cengage Learning, 2021.
13. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Consumption Tax Trends 2022: VAT/GST and Excise Rates*. — Paris, 2022.
14. International Economics. Krugman P., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. — 11th ed. — Pearson Education, 2018.
15. World Bank. *World Development Indicators*. — Washington D.C., 2023.
16. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Consumption Tax Trends 2022*. — Paris, 2022.
17. International Monetary Fund. *World Economic Outlook*. — Washington D.C., 2023.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

